

Jizzax viloyati Jizzax shahar

10-sonli umumta'lim maktabi


Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Abdujabbarova Marhabo Ilxomovna

Kalit so'zlar: *Sharof Rashidov, tavallud kuni, adabiyot, meros, o'zbek, ijod, urf-odat*

Annotatsiya: *6-noyabr — bu Sharof Rashidov tavallud topgan kun, u o'zbek adabiyotining ulkan namoyandasi sifatida tanilgan. Ushbu insho davomida biz uning hayoti, ijodi va o'zbek xalqining madaniyatidagi o'rnini yoritamiz. Rashidovning asarlari inson ruhiyatini va hayotdagi qiyinchiliklarni tasvirlaydi, uning merosi esa kelajak avlod uchun ilhom manbai bo'lib qoladi.*

Kirish: Taniqli adib va yirik jamoat arbobi Sharof Rashidov 1917-yilning 6-noyabrida Jizzax shahri atrofidagi Sovungarlik qishlog'ida tavallud topdi. Otasi Rashid Halilov yetti pushti dehqon bo'lib suyagi mehnatda qotgan, umri qora mehnatda o'tganligiga qaramasdan oilasida bilim olishga intilish juda kuchli edi.



Sharof Rashidov 1924-yili 7 yoshida Jizzaxdagi yetti yillik Narimonov nomidagi 10- oʻrta maktabning birinchi sinfiga qabul qilindi. Bu maktabda turli yillarda atoqli shoir Hamid Olimjon, yozuvchi Nasrullo Oxundov, akademik Oʻktam Oripov, Oʻzbekiston xalq yozuvchisi Nazir Safarov, dramaturg va davlat arbobi Sarvar Azimov, taniqli bolalar shoiri Shukur Saʼdulla kabi taniqli insonlar tahsil olishgan.

Aytishlaricha, Sharof Rashidovning xotirasi oʻtkir boʻlib, fanlarni juda yengil oʻzlashtirgan. 1932-yili maktabni bitirgach, Jizzax pedagogika texnikumiga oʻqishga kirdi. Texnikumda u nafaqat aʼlochi talaba, balki yaxshigina tashkilotchi sifatida ham namoyon boʻldi: u texnikum kasaba uyushmasiga rais etib saylandi. Shu yillari Sharof Rashidovning adabiyotdagi qobiliyati ham boʻy koʻrsatdi. U sheʼrlar yozib, texnikum devoriy gazetasida eʼlon qilib bordi.



Yoshlik davri

1935 yili texnikumni bitirib, ikki yil maktabda oʻqituvchilik qilgan Sharof Rashidov 1937-yili Samarqanddagi Oʻzbekiston davlat universitetiga oʻqishga kirdi. Talabalik yillarida ijod bilan shugʻullanib, sheʼrlar va kichik hikoyalar yozish bilan birgalikda, Samarqanddagi “Lenin yoʻli” gazetasida muxbir, masʼul kotib, muharrir muovini boʻlib ishlaydi. Oʻqishni bitirish arafasida gazeta muharriri lavozimida faoliyat yuritadi.

Faoliyati

Tibbiy koʻrikda yaroqsiz deb topilgandan soʻng ona diyori Jizzaxga qaytib keldi. Bu yerda uni oʻzi oʻqigan maktabga direktor etib tayinlashadi. 1941-1947 yillarda Samarqand viloyat partiya tashkilotining kotibi sifatida faoliyat yuritadi.

1947- 1949-yillarda “Qizil O‘zbekiston” (“O‘zbekiston ovozi”) gazetasiga muharrirlik qiladi. 1949-1950 yillarda O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasining raisi, 1950- 1959-yillarda O‘zbekiston Oliy kengashi rayosatining raisi, 1959 - 1983 yillarda O‘zbekiston Kompartiyasining birinchi kotibi bo‘lib ishlaydi.

Ijodi

Rashidovning ijodi 30-yillarning ikkinchi yarmida boshlangan. U dastlab she‘riyatda qalam tebratib, “Samarqand kuylari” nomi bilan birinchi she‘riy to‘plamini e‘lon qilgan. Ikkinchi jahon urushi yillarida yozgan she‘rlari 1945-yilda “Qahrim” to‘plamida chop etilgan. U ayni chog‘da adabiyotshunos va munaqqid sifatida ham qalam tebratgan. Sharof Rashidov ijodida maqolanavislik muhim o‘rinni egallaydi. Shuning uchun xam uning badiiy ijodi namunalarida bu ruh yetakchilik qiladi. Adibning “G‘oliblar”(1953) qissasi 1972-yilda qayta ishlanib “G‘oliblar” romani sifatida nashr etiladi. “Bo‘rondan kuchli” (1958), “Qudratli to‘lqin” (1964) romanlari yaratiladi. Ularda o‘zbek xalqning urushdan keyingi tiklanish yillaridagi mehnat jasorati o‘z badiiy ifodasini topgan.

Ijodkorning “Kashmir qo‘shig‘i” (1957), “Komde va Mudan” (1959) kabi lirik qissalari va “Koinot” (1960) kabi kinoqissasi an‘anaviy Sharq dostonchiligi uslubida bitilgan bo‘lib, yoshlik, bahor, go‘zallik, hayot nashidasi madhiga bag‘ishlangan. Adib hayotining so‘nggi yillarida yaratgan “Dil amri” qissasi urush yillarida Belarus zaminida kechgan jangchilarning g‘alaba yulida olib borgan hayot mamot kurashi tasviriga bag‘ishlangan.

Xulosa: Sharof Rashidovning tavallud kuni har yili bizni ijod va adabiyotning ahamiyatini qayta o‘ylashga undaydi. U o‘zbek adabiyotining yulduzi sifatida xalqimizning tarixiy va madaniy merosini yangilab, bizni o‘zimizni va orzularimizni anglashga chorlaydi. Uning asarlari, insoniylik va ma‘rifatga bo‘lgan intilish, har bir o‘quvchining yuragida abadiy joy oladi. Sharof Rashidov merosi bizga ilhom va motivatsiya berib, kelajak avlodlarni adabiyotga, o‘z tarixiga va madaniyatiga mehr qo‘yishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rashidov, Sharof. *O‘tkan kunlar*. Toshkent: O‘zbekiston davlat nashriyoti, 1976.

2. Abdullayev, Z. *O'zbek adabiyoti tarixi*. Toshkent: Fan, 2005.
3. Xudoyberganova, M. *Sharof Rashidov: ijod va merosi*. Toshkent: O'zbekiston, 2010.
4. Saidov, S. *O'zbek adabiyoti klassiklari*. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
5. Rahmon, I. *Adabiyot va jamiyat: Sharof Rashidov asarlarining tahlili*. Toshkent: Sharq, 2018.
6. Alisher, M. *Zamonaviy o'zbek adabiyoti*. Toshkent: O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2021.